QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.150

TALABALARNING NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN INGLIZ TILINI O'QITISHDA TOPSHIRIQLARGA ASOSLANGAN TA'LIMNI (TASK-BASED LEARNING) INTEGRATSIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Saydaliyeva Gulirano Akramjanovna
University of Economics and Pedagogy
nodavlat oliy ta’lim muassasasi (NOTM)
" Xorijiy filologiya" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
saydaliyevag@gmail.com

ANNOTATSIYA.Ushbu tadqiqotda ingliz tilini o’qitish jarayonida topshiriq va audio tinglashlar asoslangan o’qitish metodikasini (Task-Based Learning - TBL) qo’llash samaradorligi yoritib chiqiladi. Asosiy e’tibor til to’sig’ini yengib o‘tishga, nutq ravonligi (fluency) va aniqligini (accuracy) rivojlantirishga, shuningdek, o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirishga qaratiladi.Mazkur ishlanma yordamida o’quvchilar o’rtasida o‘tkazilgan pedagogik tajriba, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini batafsil tahlil qilish tasvirlangan. O’tkazilgan tadqiqotlar shuni namoyon qiladiki TBL-yondashuvni sistematik tarzda joriy etish til muhitiga yaxshiroq kirib borishga va o‘quvchilarni erkin so’zlashuvida ishonchini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: topshiriqlarga asoslangan ta’lim, TBL, ingliz tilini o‘qitish metodikasi, so‘zlashuv ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiya, interaktiv usullar, pedagogik texnologiyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИНТЕГРАЦИИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЗАДАНИЙ (TASK-BASED LEARNING) В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

АННОТАЦИЯ:Этой статье данны эффективность исследовательской работы рассматривается применения методики обучения на основе заданий (Task-Based Learning - TBL) в процессе обучения английскому языку . Основное внимание уделяется преодолению языкового барьера, развитию беглости (fluency) и точности (accuracy) речи, а также повышению коммуникативной активности учащихся. Описывается структуры педагогического эксперимента, проведенный среди учащихся, а также доскональный анализ количественных и качественных показателей. Результаты исследования подтверждают, что систематическое внедрение подхода TBL способствует ученикам

погружению в языковую среду и способствует повышению уверенности учеников в устном общении и в грамматике.

Ключевые слова: учение на основе заданий, TBL, методика обучения английского языка, развитие разговорных навыков, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, педагогические компетенции.

MODERN APPROACHES TO INTEGRATING TASK-BASED LEARNING (TBL) IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING TO DEVELOP STUDENTS' SPEAKING SKILLS

ABSTRACT: This research study examines the effectiveness of applying Task-Based Learning (TBL) methodology in teaching English The main focus is placed on overcoming language barriers, developing speech fluency and accuracy, as well as enhancing students' communicative engagement. The framework outlines a pedagogical experiment conducted students, alongside a detailed analysis of quantitative and qualitative indicators. The results of the study confirm that the systematic integration of the TBL approach facilitates deeper immersion into the language environment and significantly boosts students' confidence in oral communication.

Keywords: Task-Based Learning, TBL, English language teaching methodology, speaking skills, communicative competence, interactive methods, pedagogical technologies.

KIRISH. Globallashuv davrida O‘zbekistonda jahon ta’lim maydoniga faol integratsiyalashuvi sharoitida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini bilish yosh avlod muvaffaqiyatining eng muhim mezonlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy davlat ta’lim standartlari o‘qituvchilarni faqatgina grammatik bilimlarni tushuntirib berishlari va o’quvchilar tamonidan mazkur qoidalarni yod olishdan voz kechib, amaliyotga yo‘naltirilgan, kommunikativ ta’limga o‘tishga yo‘naltirmoqda. Ammo amaliyotda korishimiz mumkunki o‘qituvchilar ko‘pincha quyidagi muammoga duch kelishadi: grammatikani yaxshi biladigan va so‘z boyligi yetarli bo‘lgan o‘quvchilar jonli suhbatlar hamda monolog nutqqa kirishish zarurati tug’ilganda jiddiy psixologik to’siqqa duch kelishadi. Mashqlarni mexanik bajarishga asoslangan an’anaviy usullar (PPP - Presentation, Practice, Production) aksariyat holarda o‘quvchilarning tashabbuskorligini cheklaydi va o‘z-o‘zidan muloqot qilish uchun real sharoit yaratmaydi. Shu sababli xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy metodikalarni qolab kommunikativ vazifalar asosida o’qitish - Task-Based Learning (TBL) yondashuvini joriy etishdan iborat. TBLning uslubiy ahamiyati shundaki, til o‘rganish obyekti sifatida emas, balki muayyan maqsadga erishish vositasi (muammoni hal etish, loyiha yaratish, muhokama o‘tkazish) sifatida qaraladi.

USULLAR VA MATERIALLAR.Belgilangan maqsadga erishish uchun 8 hafta davomida o’quvchilar ortasida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tadqiqotda ingliz tilini bilish darajasi boshlang‘ich (Elementary/Pre-Intermediate, A2) bo‘lgan 40 nafar o‘quvchisidan iborat aralash guruh ishtirok etdi. Ishtirokchilar har biri 20 kishidan iborat ikkita guruhlarga bo‘lindi:

Nazorat guruhi (Control Group): O‘qitish davrida til grammatikasini tushuntirish, tarjima qilish va namunaviy mashqlarni bajarishga qaratilgan an’anaviy metodika asosida o’tkaziladi.

1. O’quvchilarda erkin so’zlashuvni va izchilligi tekshirish (Fluency & Coherence) - davomli mudatda to‘xtalishlarsiz erkin suhbat olib borish.

2. Leksik zaxira (Lexical Resource) – fe’l so’z turkimidagi so’zlardan foydalanishdagi xilma-xilligini ko’rsatib beradi.

3. Grammatik jihatdan tog’ri yozish (Grammatical Accuracy) - nutqda gaplarning to‘g‘ri tuzilishi.

4. Muloqot erkin holat(Confidence & Interaction) - psixologik to’siqlarning yo’qligi va muloqotni osonlik bilan bajarish qobiliyati.

NATIJALAR.Birlamchi va nazorat diagnostikasi davomida olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilib chiqildi. Quyida TBL-modelini qo‘llashdan oldin va keyin eksperimental va nazorat guruhlari o‘quvchilarining o‘rtacha muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari keltirilgan. 1-jadval. Og‘zaki nutq ko‘rsatkichlarining qiyosiy dinamikasi (maksimal ballga nisbatan %)

1-jadval.

Og‘zaki nutq ko‘rsatkichlarining qiyosiy dinamikasi (maksimal balldan % hisobida)

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (Oldin)	Nazorat guruhi (Keyin)	Tajriba guruhi (Oldin)	Tajriba guruhi (Keyin)
Nutq ravonligi (Fluency)	52%	56% (+4%)	46%	**78% (+22%)**
Lug‘at boyligi (Lexical Resource)	54%	65% (+10%)	60%	**35% (+75%)**
Grammatik aniqlik (Accuracy)	60%	71% (+8%)	56%	**70% (+9%)**
Muloqotdagi ishonch (Confidence)	45%	60% (+8%)	50%	**90% (+10%)**

MUHOKAMA.Quyidagi natijalar Task-Based Learning yondashuvlarini integratsiyalashgan jarayonida og'zaki ingliz tilida so'zlash malakasini sezilarli darajada yuqorilash haqidagi farazni tasdiqlaydi. O'qituvchi vaqtning 70% gacha gapiradigan an'anaviy darslardan farqli o'laroq (Teacher Talking Time — TTT), TBL tuzilishi diqqatni o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga qaratadi (Student Talking Time — STT 70–80% gacha oshiriladi). TBL yordamida koplab pedogogik vazifalarni sharoitini yaratib beradi. O'quvchilarga zaruriy vazifa (masalan, "Ideal maktab loyihasini ishlab chiqish" yoki "Tovar sotib olish bo'yicha kelishib olish")tavsiya etiladi, ular tilni mavhum mavzu sifatida emas, balki amaliy natijaga erishish vositasi sifatida qabul qilishadi.

XULOSA. Olin borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki dars jarayonlarida Task-Based Learning (TBL) uslubini integratsiyalash natijasida pedagogik samaradorlikni yuqorilash isbotlanqqdi. TBL ravon va asosli nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish yordamida psixologik va til to‘siqlarini samarali yengib o‘tishga xizmat qiladi..Kommunikativ vazifalardan foydalanish o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi va ularni faol hamkorlikka undaydi. Tematik-

jadval boyicha barcha rejalarni TBL yondashuvining elementlarini kiritish tavsiya etiladi. Ingiliz tili mualimlarini TBL dan foydalangan holatda vazifalarni tekshirish jaroyonini , seminarlar va qoshimcha darslarni tashkil etish darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ellis, R. (2004). Vazifaga asoslangan til o'rganish va o'qitish. Oksford: Oksford universiteti nashriyoti. — 382-bet.

2. Nunan, D. (2005). Kommunikativ sinf uchun vazifalarni loyihalash. Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti. — 224 bet.

3. Uillis, J. (1997). Vazifaga asoslangan ta'lim uchun asos. Harlou: Longman. — 183-bet.

4. Richards, JC va Rodgers, TS (2015). Til o'qitishning yondashuvlari va usullari (3-nashr). Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti. — 410-bet.

5. Harmer, J. (2016). Ingliz tilini o'qitish amaliyoti (5-nashr). Harlou: Pearson Education Limited. - 448 bet.